



O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA NEOLOGIZMLAR VA ULARNING SEMANTIK TAHLILI

Samarqand davlat chet tillar instituti

1-bosqich talabasi

SHAXLO RUSTAMOVA

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tili leksikasida neologizmlarning shakllanish jarayoni, ularning lingvistik tabiati hamda semantik xususiyatlari keng tahlil qilingan. Tadqiqotda zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, globallashtirish, internet kommunikatsiyasi va axborot texnologiyalarining rivojlanishi natijasida tilga kirib kelayotgan yangi leksik birliklarning paydo bo‘lish sabablari ilmiy jihatdan yoritilgan. Maqolada neologizm tushunchasining mohiyati ochib berilib, leksik, semantik, terminologik va individual-muallif neologizmlarining o‘ziga xos jihatlari misollar orqali tahlil etilgan. Shuningdek, “blogger”, “trend”, “kontent”, “platforma”, “marketpleys”, “sun’iy intellekt”, “podkast”, “reels”, “stream” kabi yangi birliklarning ma’no xususiyatlari va nutqdagi qo‘llanish darajasi ko‘rib chiqilgan. Neologizmlarning semantik tahlili asosida ayrim so‘zlarning yangi ma’nolar kasb etishi, ma’no kengayishi hamda uslubiy o‘zgarishlari ochib berilgan. Ayniqsa, internet tili va yoshlar nutqida faol ishlatilayotgan birliklarning o‘zbek tiliga moslashuvi va grammatik jihatdan shakllanish jarayoni alohida tahlil qilingan. Maqolada neologizmlarning paydo bo‘lish manbalari sifatida chet tillari, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari hamda texnologik taraqqiyot omillari ko‘rsatib o‘tilgan. Shu bilan birga, yangi so‘zlarning til boyligini oshirishdagi o‘rni, ilm-fan va texnika rivojiga xizmat qilishi kabi ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, ayrim hollarda milliy til me’yorlariga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham yoritilgan. Aralash nutq hodisasi, xorijiy birliklarning ortiqcha qo‘llanishi va adabiy til me’yorining buzilishi kabi masalalar ilmiy asosda baholangan. Tadqiqot davomida statistik ma’lumotlar, ilmiy manbalar hamda zamonaviy tilshunoslarning qarashlariga murojaat qilinib, neologizmlarning bugungi o‘zbek tilidagi o‘rni va istiqbollari tahlil qilingan. Maqola natijalari zamonaviy o‘zbek tilshunosligida leksik yangilanish jarayonlarini o‘rganish, yangi terminlarni me’yorlashtirish hamda til taraqqiyotining asosiy tendensiyalarini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: Neologizm, o‘zbek tili, leksika, semantika, semantik tahlil, leksik birlik, yangi so‘z, terminologiya.

Til — jamiyatning eng muhim aloqa vositasi va madaniy taraqqiyot ko‘zgusidir. Har qanday til jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy va texnologik



o'zgarishlar ta'sirida doimiy ravishda boyib boradi. Ana shu boyish jarayonining muhim qismi neologizmlar hisoblanadi. Neologizm termini yunoncha "neo" — yangi va "logos" — so'z tushunchalaridan kelib chiqqan bo'lib, "yangi so'z" degan ma'noni anglatadi. Tilshunoslikda neologizmlar jamiyat taraqqiyoti natijasida tilga kirib kelgan yangi so'zlar, yangi ma'nolar yoki yangi iboralarni ifodalaydi.

Zamonaviy o'zbek tilida ham neologizmlar juda faol rivojlanmoqda. Ayniqsa XXI asrda internet, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, marketing, iqtisodiyot va siyosat sohalarining rivojlanishi natijasida yuzlab yangi birliklar tilimizga kirib keldi. "Blogger", "kontent", "trend", "onlayn", "marketpleys", "startup", "podkast", "sun'iy intellekt", "mobil ilova" kabi birliklar kundalik nutqning faol qatlamiga aylandi.

Tilshunos olim David Crystal internet tilining rivojlanishini tahlil qilib shunday degan edi: "Til texnologiya bilan birga o'zgaradi." Ushbu fikr bugungi o'zbek tilidagi neologizmlar jarayoniga ham to'liq mos keladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda neologizmlar til taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida baholanmoqda. O'zbek tilidagi yangi so'zlarning shakllanishi va qo'llanish xususiyatlari haqidagi ilmiy maqolalarda globallashtirish, ijtimoiy tarmoqlar va internet kommunikatsiyasi yangi leksik birliklarning paydo bo'lishiga asosiy sabab bo'layotgani qayd etiladi.

Neologizm — tilning yangi paydo bo'lgan leksik birligi hisoblanadi. U bir nechta shakllarda yuzaga kelishi mumkin. Bulardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz. Masalan, neologizm boshqa xorijiy mamlakatlardan kirib kelgan mutlaqo yangi so'z bo'lishi mumkin. Yoki qaysidir eski so'zning bugungi kundagi yangi ma'noda qo'llanishi mumkin. Yuqorida ta'kidlanganimdek, U chet tillardan kirib kelgan yangi birlik, termin ya'ni atama sifatida paydo bo'lgan so'z hamda muallif tomonidan yaratilgan individual birlik bo'lishi ham mumkin. Muallif tomonidan yaratilgan individual birlik degani qaydir yozuvchi o'z tilida qandaydir yangi so'z kashf qiladi va uni boshqalar gapirishi mumkin, biroq u muallif tomonidan yaratilgan bo'ladi. Misol uchun, „Blogger“, „Influencer“, „Marketolog“, „Kiberxavfsizlik“, „Raqamlashtirish“, „Podkast“, „Feyk“ kabi so'zlar. Bularning aksariyati 20–25 yil oldin o'zbek tilida faol ishlatilmagan. Bunaqa so'zlar hozirgi kunda judayam ko'p, sababi texnologiyalar rivojlangan bir davrda yashayapmiz. Shuning uchun har kuni biz xohlasak, xohlamasak tilimizga yangi so'zlar kirib kelaveradi. Neologizmlar orqali tilimiz boyiydi, so'z qatlami ko'payadi.

Tilshunos Azim Hojiyev neologizmlarni "jamiyat taraqqiyoti mahsuli" deb ataydi. Chunki yangi tushunchalar paydo bo'lishi bilan ularni ifodalovchi yangi birliklarga ehtiyoj tug'iladi, albatta.



O'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lishining bir nechta sabab va oqibatlarni bor. Birinchidan, internet va axborot texnologiyalarining rivojlanishi eng katta omillardan biri hisoblanadi. Maslaan, Wi-Fi, smartfon, chatbot, platforma, kriptovalyuta, token, blokcheyn kabi.

Yana bir tomondan, "sun'iy intellekt" iborasi bundan o'n yil oldin keng ishlatilmagan bo'lsa, bugungi kunda u ilm-fan va texnologiyaning eng faol terminiga aylandi. Ikkinchidan, Instagram, Telegram, TikTok, YouTube kabi platformalar yangi leksik qatlamni shakllantirdi. Misol uchun vlog, reels, storis, layk bosmoq, obuna bo'lmoq, repost qilmoq kabi leksemalar. Bugungi yoshlar nutqida ushbu birliklar juda faol qo'llanadi. Bular hayotimizning ajralmas bir qismiga allaqachon aylanib ulgurdi. Shuning uchun bizni ularni qabul qilishdan boshqa ilojimiz yo'q. Jamiyatni rivojlanishida ham neologizmlarning ahamiyati katta, yoshlar internet tarmoqlari orqali ham yangi tushunchalarni o'rganyaptilar va atroflaridagi insonlarga tarqatyaptilar. Bu tarqatish natijasida bu yangi leksemalar insonlar ongiga singdirilyapti.

O'zbek tilida neologizmlarning paydo bo'lishining yana bir sabablaridan biri bu globalizatsiya hisoblanadi. Xalqaro madaniy va iqtisodiy aloqalar natijasida inglizcha birliklar o'zbek tiliga tez kirib kelmoqda, naqat inglizcha, balki hozirda qanchdan qancha, mamlakatlar bilan eksport, import oqibatida xitoy tilidan, rus tilidan, tojik tilidan, arab, fors, qozoq qirg'iz tillaridan so'zlar kirib kelyapti.

Masalan, menedjer, trener, mentor, startup, freelance, coworking.

Mustaqillikdan keyin yangi siyosiy va iqtisodiy terminlar paydo bo'ldi. Bu ham tilimizga yangi leksemalar qo'shilganidan dalolat beradi. Misol uchun, investitsiya, privatizatsiya, tadbirkorlik, klaster, elektron hukumat. Bu so'zlar ichki va tashqi savdo aylanmasi natijasida hamda siyosiy konferensiya, mitinglar oqibatida o'zbek tiliga kirib kelgan.

Neologizmlarning bir nechta turlari bor. Bular leksik neologizmlar, semantik neologizmlar, terminologik neologizmlar, muallif neologizmlari, o'zlashma neologizmlar, ijtimoiy siyosiy neologizmlar, texnologik neologizmlar, internet neologizmlariga bo'linadi. Leksik neologizmlarga keladigan bo'lsak, ular tilga yangi kirib kelgan mutlaqo yangi so'zlar hisoblanadi. Bunday birliklar ilgari tilda mavjud bo'lmagan bo'lib, yangi tushuncha yoki predmetni ifodalash uchun yaratiladi. Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, texnika va internet rivojlanishi leksik neologizmlar sonining ortishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa XXI asrda ingliz tilidan kirib kelgan yangi birliklar o'zbek tilida faol ishlatila boshladi. Leksik neologizmlar ko'pincha kundalik hayot bilan bog'liq bo'ladi. Ular tez ommalashadi va xalq nutqiga singib ketadi. Bunday so'zlar matbuot, internet, televideniye va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng tarqaladi. Misol uchun, blogger, podcast, markerpleys,



influencer , dron , smartfon . Masalan, “podkast” so‘zi audio yoki video shakldagi internet dasturlarini ifodalaydi. Ilgari bu tushuncha bo‘lmaganligi sababli yangi nom paydo bo‘lgan. Hozir esa ushbu birlik kundalik nutqda faol ishlatiladi. Leksik neologizmlar til boyligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Semantik neologizmlar — til taraqqiyoti jarayonida mavjud so‘zlarning yangi ma’no kasb etishi hodisasidir. Bunda yangi shakldagi so‘z yaratilmaydi, balki ilgari mavjud bo‘lgan birlik zamonaviy ehtiyojlar asosida boshqa ma’noda qo‘llanadi. Semantik neologizmlar tilning ichki imkoniyatlari orqali yuzaga keladi va bu jarayon til rivojlanishining eng tabiiy ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, texnologiya, internet, ommaviy kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi natijasida ko‘plab so‘zlar yangi semantik mazmun kasb etmoqda. Masalan, “kanal” so‘zi ilgari faqat suv oqadigan sun’iy yo‘l ma’nosini bildirgan. Hozirgi davrda esa “Telegram kanali”, “YouTube kanali” kabi birikmalarda internet sahifasi yoki axborot uzatish vositasi ma’nosida qo‘llanmoqda. Xuddi shuningdek, “platforma” so‘zi avvallari temiryo‘l bekating bir qismi sifatida tushunilgan bo‘lsa, bugungi kunda “onlayn platforma”, “ta’lim platformasi” kabi ma’nolarda ishlatilmoqda. Bu esa ma’no kengayishi hodisasining yaqqol misolidir.

Semantik neologizmlar nutqni ixcham, qulay va zamonaviy qiladi. Chunki yangi tushunchalarni ifodalash uchun mutlaqo yangi so‘z yaratish o‘rniga mavjud birliklarning ma’nosi kengaytiriladi. Masalan, “obuna” so‘zi ilgari gazeta yoki jurnalga yozilish ma’nosida ishlatilgan bo‘lsa, hozir internet sahifalarini kuzatish ma’nosini ham bildiradi. Shuningdek, “oyna”, “tarmoq”, “sahifa”, “profil” kabi birliklar ham zamonaviy texnologik ma’nolarni ifodalashda faol qo‘llanmoqda. Semantik neologizmlar tilning boyishi, moslashuvchanligi va zamonaviylashuvini ko‘rsatadi. Ular jamiyatdagi yangi ehtiyojlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi hamda til taraqqiyotining asosiy belgilaridan biri hisoblanadi.

Terminologik neologizmlar — ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish, tibbiyot, iqtisodiyot va boshqa sohalarning rivojlanishi natijasida paydo bo‘ladigan yangi terminlardir. Bunday birliklar ma’lum bir soha doirasida aniq tushunchani ifodalash uchun xizmat qiladi. Terminologik neologizmlar ko‘pincha ilmiy uslubga xos bo‘lib, ular orqali yangi texnologiyalar, ilmiy kashfiyotlar va zamonaviy jarayonlar nomlanadi. Har qanday fan taraqqiyoti yangi tushunchalarni yuzaga keltiradi, bu esa tilning yangi terminlar bilan boyishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda ayniqsa axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, robototexnika va raqamli iqtisodiyot sohalari terminologik neologizmlarning asosiy manbaiga aylangan. So‘nggi yillarda “sun’iy intellekt”, “chatbot”, “generativ model”, “algoritm”, “neyrotarmoq”, “blokcheyn”, “kriptovalyuta”,



“token”, “bulutli texnologiya” kabi birliklar keng qo‘llanmoqda. Ushbu terminlar dastlab ilmiy doirada ishlatilgan bo‘lsa, hozirgi kunda kundalik nutqqa ham kirib bormoqda. Masalan, “sun’iy intellekt” termini kompyuter tizimlarining inson tafakkuriga yaqin vazifalarni bajarishini bildiradi. “Chatbot” esa foydalanuvchi bilan avtomatik tarzda suhbat olib boruvchi dasturiy tizim hisoblanadi. “Blokcheyn” termini ma’lumotlarni xavfsiz saqlashga mo‘ljallangan raqamli texnologiyani anglatadi. “Kriptovalyuta” esa internet orqali ishlatiladigan raqamli valyuta turi sifatida qo‘llanadi. Terminologik neologizmlar faqat texnologiya sohasida emas, balki tibbiyot va biologiyada ham faol uchraydi. Masalan: genon tahriri, biotexnologiya, nanotibbiyot, vaksina pasporti, telemeditsina. Pandemiya davrida “karantin”, “masofaviy ta’lim”, “onlayn konferensiya”, “videomuloqot” kabi terminlar ham juda ommalashdi. Bu esa jamiyatdagi global o‘zgarishlarning tilga bevosita ta’sir ko‘rsatishini anglatadi. Terminologik neologizmlar ilmiy taraqqiyotning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Ular ilm-fan yutuqlarini aniq va tushunarli ifodalashga yordam beradi. Shu bilan birga, terminologik neologizmlar xalqaro xarakterga ega bo‘lib, ko‘plab tillarda deyarli bir xil shaklda qo‘llanadi. Masalan, “internet”, “algoritm”, “robot”, “mobil ilova” kabi birliklar dunyoning ko‘plab tillarida umumiy termin sifatida ishlatiladi. Shunday qilib, terminologik neologizmlar zamonaviy jamiyat taraqqiyoti, ilm-fan va texnologiya rivojining tilimizdagi muhim aksidir. Ular o‘zbek tilining ilmiy salohiyatini boyitadi va yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatini kengaytiradi.

Muallif neologizmlari — yozuvchi, shoir, publitsist yoki jurnalist tomonidan yaratilgan yangi so‘z va iboralardir. Bunday birliklar individual ijod mahsuli hisoblanib, asosan badiiy adabiyot, publitsistika va ommaviy axborot vositalarida uchraydi. Muallif neologizmlarining asosiy vazifasi nutqning ta’sirchanligini oshirish, obrazlilik yaratish va muallif uslubining o‘ziga xosligini namoyon etishdan iboratdir. Har bir ijodkor o‘z asarida yangi tasvir vositalarini yaratishga intiladi va shu jarayonda yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi. Muallif neologizmlari ko‘pincha mavjud so‘zlarga yangi qo‘shimchalar qo‘shish, ikki yoki undan ortiq so‘zlarni birlashtirish, ma’noni kengaytirish yoki mutlaqo yangi birlik yaratish orqali yuzaga keladi. Masalan, “ruhiyatshunos”, “tafakkurnoma”, “ma’naviyatparvar”, “fikriy olam” kabi birliklar muallif ijodi mahsuli sifatida yuzaga kelgan. Bunday so‘zlar asarning badiiy-estetik qiymatini oshiradi va kitobxon tasavvuriga kuchli ta’sir qiladi. Muallif neologizmlarining yana bir muhim xususiyati shundaki, ayrim birliklar vaqt o‘tishi bilan ommalashib, umumxalq tiliga ham kirib qolishi mumkin. Dastlab individual uslub mahsuli bo‘lgan so‘z keyinchalik keng qo‘llanadigan



birlikka aylanishi ehtimoli mavjud. Bu hol til taraqqiyotida muallif ijodining katta o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

O‘zbek adabiyotida Abdulla Qahhor, Oybek, G‘afur G‘ulom, Erkin Vohidov va Abdulla Oripov kabi adiblar ijodida ko‘plab muallif neologizmlari uchraydi. Zamonaviy jurnalistika va internet publitsistikasida ham yangi iboralar faol yaratilmoqda. Ayniqsa blogerlar va internet mualliflari zamonaviy mavzularni ifodalash uchun yangi birliklardan keng foydalanmoqda. Muallif neologizmlari tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqni boyitadi hamda milliy adabiyotning estetik rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli ular tilshunoslik va adabiyotshunoslikda muhim tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi.

O‘zlashma neologizmlar — chet tillardan kirib kelgan yangi so‘z va iboralardir. Bunday birliklar tilga boshqa xalqlar bilan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik aloqalar natijasida o‘zlashadi. Hozirgi davrda o‘zbek tiliga eng ko‘p ingliz tilidan yangi birliklar kirib kelmoqda. Bunga internet, ijtimoiy tarmoqlar, xalqaro biznes va zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi asosiy sabab bo‘lmoqda. Globalizatsiya jarayoni dunyo tillari o‘rtasidagi aloqalarni kuchaytirgani sababli yangi so‘zlarning bir tildan boshqasiga tez o‘tishi kuzatilmoqda. Bu birliklar dastlab xorijiy shaklda qo‘llangan bo‘lsa-da, vaqt o‘tishi bilan o‘zbek tilining grammatik qoidalariga moslashib bormoqda. Masalan, “layk bosmoq”, „bloklamoq”, “repost qilmoq”, „stream qilmoq”. Bu hol chet til birliklarining o‘zbek nutqiga singib borayotganini ko‘rsatadi. Ayrim o‘zlashma neologizmlar uchun o‘zbekcha muqobilalar yaratilayotgan bo‘lsa-da, ko‘pincha asl shakl faolroq ishlatiladi. Masalan, “aqlli telefon” o‘rniga “smartfon”, “mazmun” o‘rniga “kontent” birliklari kengroq qo‘llanadi. O‘zlashma neologizmlar til boyligini oshiradi va yangi tushunchalarni tez ifodalash imkonini beradi. Shu bilan birga, ular milliy til me‘yorlariga ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shuning uchun bunday birliklarni me‘yor asosida qo‘llash til madaniyati uchun muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy-siyosiy neologizmlar — jamiyat, davlat boshqaruvi, siyosat va iqtisodiyotdagi o‘zgarishlar natijasida yuzaga keladigan yangi so‘z va iboralardir. Bunday birliklar mamlakat hayotidagi yangiliklar, islohotlar va siyosiy jarayonlarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Har bir davr o‘zining yangi tushunchalarini yuzaga keltiradi va ular til orqali nomlanadi. Shu sababli ijtimoiy-siyosiy neologizmlar jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq hisoblanadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin o‘zbek tilida ijtimoiy-siyosiy neologizmlar soni sezilarli darajada ortdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish, davlat boshqaruvi tizimining yangilanishi, xalqaro hamkorlikning kengayishi va zamonaviy islohotlar yangi terminlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Masalan , elektron hukumat, investitsiya, innovatsiya, klaster,



modernizatsiya, tadbirkorlik, xususiylashtirish, fuqarolik jamiyati. Ushbu birliklar davlat va jamiyat hayotidagi yangi jarayonlarni ifodalash uchun faol qo'llanmoqda. Masalan, "elektron hukumat" termini davlat xizmatlarini internet orqali amalga oshirish tizimini bildiradi. "Klaster" esa ishlab chiqarish va iqtisodiy hamkorlikning zamonaviy shaklini anglatadi. Ijtimoiy-siyosiy neologizmlar ommaviy axborot vositalari, rasmiy hujjatlar, internet nashrlari va siyosiy nutqlarda keng uchraydi. Ayniqsa islohotlar bilan bog'liq terminlar bugungi kunda kundalik nutqqa ham kirib bormoqda. Bunday birliklar jamiyatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanish darajasini aks ettiradi. Ijtimoiy-siyosiy neologizmlar tilning zamonaviylashuviga xizmat qiladi hamda yangi davr tushunchalarini ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Texnologik neologizmlar — texnika, internet va raqamli texnologiyalar rivojlanishi natijasida paydo bo'lgan yangi so'z va terminlardir. Hozirgi davrda ushbu neologizmlar tilning eng tez rivojlanayotgan qatlamlaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy texnologiyalar kundalik hayotga chuqur kirib borishi bilan yangi tushunchalarni ifodalashga ehtiyoj ortmoqda. Ayniqsa axborot texnologiyalari, sun'iy intellekt, mobil aloqa va internet tizimlari bilan bog'liq yangi birliklar juda tez ommalashmoqda. Texnologik neologizmlar asosan ingliz tilidan kirib keladi. Sababi ko'plab yangi texnologiyalar dastlab ingliz tilida yaratiladi va xalqaro miqyosda shu nom bilan tarqaladi. Masalan, smartfon, chatbot, dron, blokcheyn, token, kriptovalyuta, bulutli texnologiya.

Internet neologizmlari — internet va ijtimoiy tarmoqlar rivoji natijasida paydo bo'lgan yangi so'z va iboralardir. Bunday birliklar ayniqsa yoshlar nutqida juda faol qo'llanadi. Zamonaviy kommunikatsiya vositalari, Telegram, Instagram, TikTok, YouTube kabi platformalar internet neologizmlarining asosiy manbaiga aylangan. Ushbu birliklar insonlarning tezkor va qulay muloqot qilish ehtiyoji tufayli yuzaga kelmoqda. Internet neologizmlari ko'pincha ingliz tilidan o'zlashadi. Masalan, storis, reels, stream, vlog, post, лайк, repost, donate. Bu birliklar dastlab internet foydalanuvchilari orasida ishlatilgan bo'lsa, hozir kundalik nutqqa ham kirib bormoqda. Masalan, "storis joyladim", "post tashladim", "layk bosdim" kabi gaplar yoshlar nutqida keng uchraydi. Ayrim internet neologizmlari o'zbekcha grammatik qo'shimchalar bilan qo'llanadi. Bu esa ularning tilga moslashayotganini ko'rsatadi. Internet neologizmlari tilning zamonaviylashuviga xizmat qiladi va yangi kommunikativ ehtiyojlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, ular tilga chet tillarning kuchli ta'sirini ham ko'rsatadi. Bugungi kunda internet neologizmlari ommaviy axborot vositalari, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar orqali juda tez tarqalmoqda hamda zamonaviy o'zbek tilining faol qatlamiga aylanmoqda.



Neologizmlarning uslubiy xususiyatlari tilning zamonaviy rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ular nutqning ifodaliligi, ta’sirchanligi va zamonaviyligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Neologizmlar yangi tushunchalarni ifodalovchi birliklar sifatida turli nutq uslublarida o‘ziga xos vazifalarni bajaradi. Ularning uslubiy xususiyatlarini bir necha asosiy yo‘nalishlarda ko‘rib chiqish mumkin. Avvalo, neologizmlarning eng muhim uslubiy xususiyati zamonaviylikni ifodalashidir. Ular nutqda yangi davr ruhini aks ettiradi va jamiyatdagi yangiliklarni til orqali ifodalash imkonini beradi. Masalan, “blogger”, “trend”, “kontent”, “sun’iy intellekt” kabi birliklar zamonaviy hayot va texnologik taraqqiyotni ifodalaydi. Bu so‘zlar nutqni zamon bilan uyg‘unlashtiradi va uni dolzarb qiladi. Ikkinchi muhim xususiyat — ekspressivlik, ya’ni ta’sirchanlikdir. Neologizmlar nutqning hissiy bo‘yoqdorligini oshiradi. Ayniqsa internet va yoshlar nutqida “top”, “cringe”, “hype”, “wow” kabi birliklar fikrni kuchli emotsional tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Bunday so‘zlar orqali so‘zlovchi o‘z munosabatini yanada jonli va aniq ifodalay oladi. Neologizmlarning yana bir uslubiy jihati ularning uslubiy rang-barangligidir. Ular turli nutq uslublarida turlicha qo‘llanadi: rasmiy uslubda “innovatsiya”, “raqamlashtirish”, “modernizatsiya” kabi so‘zlar ishlatilsa, ilmiy uslubda “algoritm”, “neyrotarmoq”, “biotexnologiya” kabi terminlar qo‘llanadi. So‘zlashuv uslubida esa “layk”, “storis”, “stream” kabi birliklar faol ishlatiladi. Bu holat tilning uslubiy imkoniyatlarini kengaytiradi.

Shuningdek, neologizmlar ijtimoiy-madaniy mazmunni ham ifodalaydi. “Elektron hukumat”, “startap”, “freelance”, “klaster” kabi so‘zlar jamiyatdagi yangi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiradi. Ular orqali zamonaviy hayot tarzi tilga ko‘chadi. Neologizmlarda aralash uslub, ya’ni kod-svitching hodisasi ham ko‘p uchraydi. Masalan, “post qildim”, “repost qildim”, “blokladim” kabi birliklarda chet til so‘zlariga o‘zbekcha qo‘shimchalar qo‘shiladi. Bu esa nutqning tezkor va erkin shaklini yaratadi. Yana bir muhim xususiyat — nutqning ixchamligidir. Neologizmlar murakkab tushunchalarni qisqa va aniq ifodalash imkonini beradi. Masalan, “sun’iy intellekt tizimi” kabi uzun iboralar o‘rniga qisqaroq va tushunarli shakllar ishlatiladi. Badiiy uslubda esa neologizmlar obrazlilikni kuchaytirish, yangi stilistik effekt yaratish uchun xizmat qiladi. Yozuvchi va shoirlar yangi so‘zlar orqali o‘ziga xos badiiy tasvirlar yaratadi. Neologizmlarning uslubiy xususiyatlari tilning boyishi, zamonaviylashuvi va kommunikativ imkoniyatlarining kengayishida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular nutqni jonli, ta’sirchan va zamonga mos qiladi.

Neologizmlarning semantik tahlili — yangi paydo bo‘lgan so‘zlar yoki yangi ma’no kasb etgan birliklarning ma’nosini, uning o‘zgarish yo‘llarini va nutqdagi funksiyasini o‘rganadigan tilshunoslik yo‘nalishidir. Bu jarayon orqali neologizmlarning qanday ma’noda ishlatilishi, qaysi sohada faol qo‘llanishi va



vaqt o'tishi bilan ma'no kengayishi yoki torayishi kabi holatlar tahlil qilinadi. Semantik tahlilda asosiy e'tibor so'zning shakliga emas, balki uning mazmuniga qaratiladi. Neologizmlar odatda jamiyat taraqqiyoti, texnologik yangiliklar va madaniy o'zgarishlar natijasida yangi ma'nolar bilan boyiydi. Masalan, "kanal" so'zi ilgari faqat suv yo'li ma'nosini bildirgan bo'lsa, hozir "Telegram kanali" yoki "YouTube kanali" shaklida axborot uzatish vositasi ma'nosini ham anglatadi. Bu holat semantik kengayish deb ataladi. Neologizmlarning semantik tahlilida quyidagi jarayonlar muhim hisoblanadi: ma'no kengayishi, ma'no torayishi, ma'no ko'chishi va yangi ma'no hosil bo'lishi. Ma'no kengayishi — bir so'zning avvalgi ma'nosiga yangi ma'no qo'shilishi. Masalan, "platforma" so'zi ilgari faqat transport yoki qurilish elementi sifatida ishlatilgan bo'lsa, hozir "onlayn platforma" tushunchasi bilan ham qo'llanadi. Ma'no ko'chishi esa so'zning metaforik yoki ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan bog'liq. Masalan, "tarmoq" so'zi biologiyada yoki texnikada ishlatilsa, hozir "internet tarmog'i" shaklida keng qo'llanadi. Bu holat semantik o'zgarishning muhim ko'rinishidir. Neologizmlar semantik jihatdan ko'pincha texnologiya, internet, ijtimoiy hayot va iqtisodiyot bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, "blogger" so'zi internetda kontent yaratuvchi shaxsni bildiradi, "trend" esa ommalashgan hodisa yoki yo'nalishni anglatadi. "Kontent" so'zi esa media mahsulotlari (video, matn, rasm) ma'nosida ishlatiladi. Semantik tahlil jarayonida yana bir muhim jihat — kontekstga bog'liqlikdir. Bir so'z turli vaziyatlarda turlicha ma'no kasb etishi mumkin. Masalan, "layk" so'zi oddiy ma'noda yoqtirishni bildirsa, internet muhitida u ijtimoiy baholash vositasiga aylangan. Shuningdek, neologizmlar semantik jihatdan tez o'zgaruvchan bo'ladi. Texnologiya rivojlangani sari yangi ma'nolar paydo bo'ladi va eski ma'nolar ikkinchi darajaga o'tishi mumkin. Bu jarayon tilning dinamikligini ko'rsatadi. Neologizmlarning semantik tahlili ularning ma'no tizimini, rivojlanish bosqichlarini va nutqdagi qo'llanish xususiyatlarini aniqlashga yordam beradi. Bu esa til taraqqiyotini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

Neologizmlar til taraqqiyotining eng muhim va faol omillaridan biri hisoblanadi. Til doimiy ravishda jamiyat, fan, texnika va madaniyat bilan birga rivojlanadi. Shu jarayonda yangi tushunchalarni ifodalash zarurati yuzaga keladi va natijada neologizmlar paydo bo'ladi. Ular tilning boyishiga, zamonaviylashuviga va kommunikativ imkoniyatlarining kengayishiga xizmat qiladi. Neologizmlarning til taraqqiyotidagi eng asosiy o'rni — yangi voqelik va tushunchalarni ifodalashdir. Jamiyatda yangi ijtimoiy munosabatlar, texnologiyalar va ilmiy kashfiyotlar paydo bo'lgani sari ularni nomlash uchun yangi so'zlar kerak bo'ladi. Masalan, "sun'iy intellekt", "elektron hukumat", "startup", "blokcheyn" kabi neologizmlar zamonaviy hayotdagi yangi



jarayonlarni ifodalaydi. Shuningdek, neologizmlar tilning leksik boyligini oshiradi. Har bir yangi soʻz til tizimini kengaytiradi va uni yanada ifodali qiladi. Bu jarayon tilning ichki rivojlanish qonuniyatlariga mos ravishda amalga oshadi. Masalan, internet va ijtimoiy tarmoqlar rivojlanishi bilan “blogger”, “kontent”, “trend”, “reels”, “stream” kabi birliklar faol qoʻllanila boshladi. Neologizmlar tilning moslashuvchanligini ham koʻrsatadi. Til yangi sharoitlarga tez moslashib, yangi birliklarni qabul qiladi yoki oʻz ichki imkoniyatlari orqali yaratadi. Bu esa tilning tirik tizim ekanligini isbotlaydi. Masalan, “layk bosmoq”, “post qilish”, “bloklamoq” kabi birliklar chet til soʻzlarining oʻzbek tiliga moslashgan shaklidir.

Til taraqqiyotida neologizmlarning yana bir muhim oʻrni — ilmiy va texnik rivojlanishni ifodalashdir. Har bir yangi ilmiy kashfiyot yangi terminlarni talab qiladi. Bu terminlar esa neologizm sifatida tilga kiradi va ilm-fan rivojiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, neologizmlar yoshlar nutqi va zamonaviy kommunikatsiyada ham muhim rol oʻynaydi. Ular nutqni tezkor, ixcham va zamonaviy qiladi. Ayniqsa internet tilida neologizmlar juda faol ishlatiladi.

Xulosa qilib aytganda, neologizmlar til taraqqiyotining ajralmas qismi boʻlib, ular tilni boyitadi, zamonaviylashtiradi va yangi davr talablariga moslashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. – Oʻzbek tili leksikologiyasi
— Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004.
2. Rahmatullayev Sh. – Hozirgi oʻzbek adabiy tili
— Toshkent: Universitet nashriyoti, 2006.
3. Begmatov E. – Oʻzbek tili leksikasi masalalari
— Toshkent: Fan nashriyoti, 1990-yillar (aniq nashrlar turli yillarda).
4. Oʻzbek tilining izohli lugʻati
— Toshkent: Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006–2008.
5. Crystal D. – Language and the Internet
— Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
6. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R. va boshqalar – Hozirgi oʻzbek adabiy tili
— Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2009.
7. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Boqiyeva G. va boshqalar – Hozirgi oʻzbek adabiy tili (darslik)
— Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020.



8. Sayfullayeva R.R., Mengliyev B.R., Qurbonova M.M. va boshqalar – Hozirgi o‘zbek tili
— Toshkent: Tafakkur avlodi nashriyoti, 2023.
9. Baxtiyor Mengliyev – Hozirgi o‘zbek tili
— Toshkent: Excellent Poligraphy nashriyoti, 2020.
10. R. Sayfullayeva va B. Mengliyev – Hozirgi o‘zbek adabiy tili (o‘quv qo‘llanma/darslik turli nashrlari)
— Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2009 va keyingi qayta nashrlar.